



Abdullo ABDUXALILOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, DSc
E-mail: abduxalilovabdullo81@gmail.com

NOGIRONLIGI BOR SHAXSLAR ISTIQOMAT QILAYOTGAN OILALARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda jahonda nogironligi bor shaxslarni turmush sifatini oshirish jarayonlarida ularni oilalarda istiqomat qilishi, oila qurishda teng imkoniyatlarni ta'minlanishi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan shundan kelib chiqib, jahonning yirik tadqiqot markazlari tomonidan bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi nogironligi bor shaxslarning oilalarda istiqomat qilish jarayonlarida yuzaga kelayotgan to'siqlar va ularni yechimini tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqolada muallif Sharq mutafakkirlarining oila instituti borasidagi ta'limotlari, nogironligi bor shaxslar istiqomat qilayotgan oilalarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, nogironligi bor farzandni parvarish qilayotgan oilalarning muammolari va yechimlarini ochib berilgan. Maqolada nogironligi bor shaxslar istiqomat qilayotgan oilalarning turmush sifatini oshirish jarayonlarida professional yondashuvning ahamiyati muhimligi muallif tomonidan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Oila, oila shakllari, nogironlik, nogironligi bor shaxs istiqomat qilayotgan oila, nogironligi bor farzand, nogironligi bor farzandni tarbiyalayotgan oila, turmush qurish, farzand tarbiyasi, nogironligi bor bola, individual yondashuv, mulqot, ijtimoiy ish, ijtimoiy ish texnologiyalari.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СЕМЕЙ В КОТОРЫХ ПРОЖИВАЮТ ЛИЦА С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Аннотация

Сегодня в мире особое внимание уделяется обеспечению равных возможностей в процессе построении семьи лиц с инвалидностью. Именно исходя из этого крупными исследовательскими центрами мира проводятся множество исследований по данной проблематике. Целью данной статьи является изучение барьеров с которыми сталкиваются семьи в которых проживают лица с инвалидностью и путей их преодолению. В данной статье раскрываются учения Восточных мыслителей о институте семьи, особенности семей в которых проживают лица с инвалидностью, а также проблемы семей воспитывающие детей с инвалидностью и меры их решения. В статье обосновывается необходимость, в процессе повышения качества жизни семей в которых проживают лица с инвалидностью внедрение профессионального подхода.

Ключевые слова: Семья, формы семьи, инвалидность, семьи в которых проживают лица с инвалидностью, ребёнок с инвалидностью, семья воспитывающая ребёнка с инвалидностью, создание семьи, воспитание ребёнка, ребёнок с инвалидностью, индивидуальный подход, общение, социальная работа, технологии социальной работы.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FAMILIES LIVING WITH PERSONS WITH DISABILITIES

Annotation

Today, special attention is paid worldwide to ensuring equal opportunities in the family-building process for persons with disabilities. Based on this, major research centers around the world conduct numerous studies on this issue. The purpose of this article is to study the barriers faced by families living with persons with disabilities and ways to overcome them. The article discusses the teachings of Eastern thinkers on the institution of the family, features of families living with persons with disabilities, as well as problems of families raising children with disabilities and measures to solve them. The article substantiates the necessity of introducing a professional approach in the process of improving the quality of life for families living with persons with disabilities.

Key words: Family, family forms, disability, families living with persons with disabilities, child with disability, family raising a child with disability, family formation, child rearing, child with disability, individual approach, communication, social work, social work technologies.

Kirish. "Oila – jamiyatning eng qadimiy va muhim ijtimoiy institutlaridan biridir. Insoniyat tarixida oila har doim shaxsiy hayotning, ijtimoiy nazoratning va iqtisodiy faoliyatning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelgan. U har bir kishining shakllanishida, tarbiyasida, axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishida muhim rol o'ynaydi.

Oila – qon-qarindoshlik, nikoh, asrab olish yoki farzandlikka olish asosida shakllangan, o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruhdir"[1]. "Oila a'zolari o'rtasida nafaqat qonuniy, balki axloqiy va hissiy bog'liqlik ham mavjud bo'ladi"[2]. Bundan kelib chiqib har bir inson uchun oila qurish, umuman olganda oilada istiqomat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharq allomalari oila institutini o'rganishga o'z ta'limotlarida alohida e'tibor qaratganlar. Mazkur holat Abu Nasr Al-Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalarning asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Nogironlik masalalari va ularning oila qurish imkoniyatlari, shu bilan birga nogironligi bor farzandni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari ko'plab G'arbiy Yevropa, AQSH, shuningdek, MDH olimlarining tadqiqotlarida ko'rish mumkin. O'zbekiston olimlarining mazkur masala: M.Ganiyeva[3], N.Latipova[4], L.Mo'minova[5], D.Nurkeldiyeva[6], V.Alimova[7], V.Alekseeva[8], M.Abduvaliyeva[9], F.Komilov[10], Z.Uzakova[11],

D.Yusupov[12], Y.Checherina[13], A.Abduxalilovlarni[14] tadqiqotlarida ko'rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Nogironligi bor shaxslar istiqomat qilayotgan oilalar ko'p holatda kuchli ijtimoiy va psixologik bosim ostida yashaydilar. Shu sababli, bunday oilalarning farovonligini ta'minlash jamiyatning ijtimoiy adolatga sodiqligi va inson huquqlariga hurmat ko'rsatish darajasini belgilaydi. O'z navbatida, nogironlik fenomeni bilan to'qnashgan oilalarning asosiy muammolaridan biri nogironligi bor farzandni tarbiyalash va uni parvarish qilish hisoblanadi.

Nogironligi bor bolalarni tarbiyalash nafaqat ota-onalar, balki pedagoglar, psixologlar va jamiyatning boshqa a'zolari oldida turgan dolzarb ijtimoiy vazifadir. Bunday bolalar jismoniy, aqliy yoki hissiy rivojlanishda cheklovlarga ega bo'lishi mumkin. Shu bois, ularning tarbiyasida individual yondashuv, sabr-toqat, mehr-muhabbat va psixologik ko'mak alohida o'rin tutadi.

Tahlil va natijalar. Nogironligi bor bolalarni tarbiyalash jarayonlari quyidagi asosiy tamoyillar asosida bo'lishi lozim:

a) Individual yondashuv.

Nogironligi bor bolaning o'ziga xosligi mavjud. Ularning tarbiyasida standart metodlardan ko'ra individual yondashuv muhim hisoblanadi. Har bir bolaning ehtiyoji, qobiliyati, o'zaro muloqot qilish shakli farq qiladi.

b) Pozitiv psixologik muhit yaratish.

Ijoiy va ruhlantiruvchi muhit bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Tarbiya jarayonida bolani ijtimoiy faollikka jalb etish, unga maqsadli vazifalar topshirish, muvaffaqiyatlarini ta'kidlab borish zarur.

c) Hamkorlikda tarbiya.

Ota-ona, pedagog, logoped, psixolog va tibbiyot xodimlari o'rtasidagi hamkorlik nogironligi bor bolani to'laonli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi"[15].

Nogironligi bor farzandni tarbiyalashda ota-onaning psixologik holati katta ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar ko'pincha o'z farzandining nogironligini tan olish, uni tarbiyalash, kelajagidan xavotirlanish kabi psixologik bosimlar ostida bo'ladi. Ularni ruhiy qo'llab-quvvatlash, psixologik yordam ko'rsatish muhimdir.

"Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bor bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi eng avvalo ota-onaning unga bo'lgan munosabati va qo'llab-quvvatlash darajasiga bog'liq"[16].

Shu bilan birga mazkur jarayonda ta'limning ijtimoiy hayot bilan integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Nogironligi bor bolalarning ijtimoiy hayotga qo'shilishi uchun ularni umumiy ta'lim muassasalarida inklyuziv tarzda o'qitish, maxsus dasturlar asosida rivojlantirish kerak. Bu esa o'z navbatida: nogironligi bor bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllanishiga, tengdoshlari bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatilishiga, shuningdek

ularning imkoniyatlariga nisbatan jamiyatda ijoiy munosabatni shakllanishiga xizmat qiladi.

Nogironligi bor bolani tarbiyalash jarayonida ko'plab to'siqlar va qiyinchiliklarga duch kelinadi. Nogironligi bor bolani tarbiyalashda asosiy qiyinchiliklarga:

Muloqotdagi to'siqlar;

Harakat cheklovlari

Ijtimoiy stigma (stereotiplar) kabi to'siqlar kiradi.

O'z navbatida ularni bartaraf etishda quyidagi yechimlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Maxsus pedagogika vositalaridan foydalanish;

Vizual, audio yoki kinestetik usullarni qo'llash;

Jamiyatda inklyuziv madaniyatni targ'ib qilish.

Nogironligi bor farzandni tarbiyalashda asosiy maqsad – uni o'zini anglaydigan, mustaqil, baxtli va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu jarayonda ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning birgalikdagi harakati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ldiki, nogironligi bor shaxslar istiqomat qilayotgan oilalar ko'plab to'siqlarga duch kelishmoqda. Ularni bartaraf etilishi, shuningdek teng imkoniyatlarni yaratish jarayonlarida ijtimoiy ish texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida, nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ish yuritish – zamonaviy ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, nogironligi bor farzandni tarbiyalovchi oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularning psixologik, huquqiy, iqtisodiy muammolarini aniqlash va bartaraf etish ijtimoiy ishning muhim vazifalaridandir. Mazkur faoliyatda aniq texnologik yondashuvlar, usullar va vositalar qo'llaniladi.

Xulosa va takliflar. Nogironligi bor shaxs istiqomat qiluvchi oilalar borasida ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, bugungi kunda ular hanuzgacha ko'plab muammolarga duch kelmoqdadlar. Ularni bartaraf etish jarayoni esa ijtimoiy ish sohasidagi mutaxassislarini jalb qilish va tizimli sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazilishini taqozo etadi.

O'z navbatida, nogironligi bor shaxs istiqomat qiluvchi oilalarga ijtimoiy-psixologik ko'mak berish va ularni turmush sifatini oshirish jarayonlarida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

Nogironligi bor shaxs istiqomat qilayotgan oilalarni ijtimoiy psixologik va iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan davlat dasturini qabul qilish.

Mahallalarda faoliyat olib borayotgan ijtimoiy xodimlarni nogironligi bor shaxslar bilan ishlash ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirib borish.

Nogironlik masalalariga doir qabul qilinayotgan qarorlarni gender ekspertizasidan o'tkazish.

Shu bilan birga Yangi O'zbekistonda oila institutini rivojlantirishda inklyuzivlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratilishi nogironligi bor shaxslar istiqomat qilayotgan oilalarning turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Latipova N, Ziyayeva X. Oila va gender sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma.- T.: "Book trade ko" nashriyoti, 2022. – 6-bet. 180 bet.
2. Latipova N, Ziyayeva X. Oila va gender sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma.- T.: "Book trade ko" nashriyoti, 2022. – 8-bet. 180 bet.
3. Ганиева М.Х. Социальной работа с разными группами населения // Общественное мнение. Права человека. – Тошкент: Ижтимоий фикр, 2015. - №4. – 116 с.
4. Латипова Н.М. Абдухалилов А.А. Алексеева В.С. "Социальные Барьеры В Процессе Формирования Инклюзивного Общества", Историческая и социально-образовательная мысль. 2022. – 97 с.
5. Муминова Л.Р. Социальная защита детей в Узбекистане: наука и практика. // Сборник статей. – Тошкент: Specter Media Group, 2016г. – 90 с.
6. Нуркелдиева Д.А. Ўзбекистонда алоҳида ёрдамга муҳтож илк ёшдаги болаларнинг коррекцион-педагогик абиляцияси ва комплекс қўллаб-қувватлаш / "Укрепление социальной работы в обеспечении благополучия детей и семей в Узбекистане" мавзусидаги халқаро форум материаллари. – Тошкент., 2019. – 71 б.

7. Алимova B.C. Целенаправленная Реабилитация Детей С Церебральным Параличом В Условиях Республиканского Центра Социальной Адаптации Детей. Медицинские науки. 3 с. <https://cyberleninka.ru/article/n/tselenapravlenneya-reabilitatsiya-detey-s-tserebralnym-paralichom-v-usloviyah-respublikanskogo-tsentra-sotsialnoy-adaptatsii-detey/viewer> Murojaat sanasi: 11.01.2024.
8. Алексеева B.C. Социальная Защита Лиц С Инвалидностью Как Средство Обеспечения Мобильности Уязвимых Групп Населения// O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2022, [1/6] – 44 с.
9. Абдувалиева M.A. / Механизмы совершенствования социальной адаптации детей с инвалидностью. / – Монография; - Ташкент: «Zebo prints», 2023 – 56 с.
10. Камиллов Ф.О. "Ногиронлиги бўлган болаларни ижтимоий ҳимоя қилишни институционал такомиллаштириш" Ўзбекистон Миллий университети [Матн]: монография –Тошкент: “Бола ва замон” нашриёти, 2023. – 84 б.
11. Узакова З.Ф. Алоҳида эҳтиёжли ёшларнинг ижтимоийлашуви, меҳнатга интеграциялашувининг ўзига хос хусусиятлари. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2019й. – 40 б.
12. Юсупов, Д. (2018) Невидимые люди // Газета.uz 29.11.2018 (на узбекском) <https://www.gazeta.uz/ru/2018/11/29/statistics/> Murojaat sanasi: 22.10.2023
13. Чичерина Я.Е. Муминова Л.Р. "Методы И Содержание Коррекционно - Развивающей работы По Развитию Интеллектуальных Способностей У Воспитанников Детских Домов «Мехрибонлик»" 2008. – 4 с.
14. Abdukhalilov A.A. Yusupov D. Barriers to disability-inclusive employment in Uzbekistan: A pilot qualitative study of disabled people's lived experiences. Journal of International Development / Volume 34, Issue 5. Accepted: 28 June 2022. DOI: 10.1002/jid.3693
15. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т.3 Проблемы развития психики/Под ред. А.М. Матюшкина. -- М.: Педагогика, 1983. — 368 с., ил. URL: http://elibrary.gnpbu.ru/text/vygotsky_ss-v-6tt_t3_1983/go,4;fs,1/ Murojaat sanasi: 14.07.2025
16. Turnbull, Ann, et al. Families, Professionals, and Exceptionality: Positive Outcomes Through Partnerships and Trust. Pearson, 2014. URL: https://www.researchgate.net/publication/235664269_Families_Professionals_and_Exceptionality_Positive_Outcomes_Through_Partnership_and_Trust Murojaat sanasi: 14.07.2025